



Soatov Muxtor Botir o'g'li

She'riyatda tahallusi:

Al-Qumqo'rg'oniy

O'zbekiston Milliy Universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi

1-bob: QALBIM MALHAMI.

QO'NG'IROQ KUTGAN ONAM.

O'zimning dardimla yugurib yelib,
Jonim ham bo'g'zimga keldi tiqilib.
Hammadan o'zimni go'yo zo'r bilib,
Onamga qo'ng'iroq qilmabman
bugun.

Qo'l ochar duoga farzandim deya,
Sog' bo'lsin qaro ko'z dilbandim
deya.

Tush emas barchasi haqiqat ro'yo,
Onamga qo'ng'iroq qilmabman
bugun.

Noshukur o'g'ilman, bag'ritosh
farzand,

Onasin ko'nglini og'ritgan badbaxt.
So'ng bildim men uchun onam ekan
taxt,

Onamga qo'ng'iroq qilmabman
bugun.

Kechirgin bag'ritosh o'g'lingni Ona,
Yana men yoshlikka qaytsaydim
yana.

Oyog'ing poyiga borimni to'kib,
Yuzinga yuzimni bossaydim Ona.

Bilaman gohida ko'nglingni o'ydim,
Eslasam ularni hayotdan to'ydim.

Qumsayman mehringni, qaynoq
bag'ringni,

Hattoki sog'inchdan yig'lamay
qo'ydim.

Gunohkor o'g'lingni kechirgin Ona,
O'g'ling holin ko'rgin, qaragin
mana.

Sen uchun yig'lamas, yig'lamas
nokas,

Shu nokas o'g'lingni kechirgin Ona.

Sening poying o'pdim aytgin men
qachon,

Shirin so'z aytmadim senga hech
qachon.

KECHIRGIN ONA.



O'g'lingning ishlari yurishmas hech ham,

Bu holda senga baxt kuladi qachon.

Shunda ham deysan sen baxtli bo'l bolam,

Sen borsan men uchun go'zaldur olam.

Onajon borsanki bordurman men ham,

Sensiz hech unmaydi qalbmida lolam.

SINGLIM.

Allohning eng go'zal in'omi singlim,

Onamning mehrini berolgan singlim.

Ko'zlaring baxt ila porlasin doim,

Ikki akang uchun sog' bo'lgin singlim.

Zuhro ham yoningda sendek porlolmas,

Zamzamning suvi ham sendek zilolmas.

O'zingsan qalbimga quyoshim singlim,

Ming lozar bir bo'lib sendek bo'lolmas.

Mushk-anbar ifori hijolat sendan,

Jannatning iforin taratgan singlim.

Baxtli odam yo'qdir dunyoda mendan,

Baxtimning kaliti o'zingsan singlim.

Sen kulsang titraydi dunyo-yu jahon,

Otamning ishonchi o'zingsan singlim.

Go'yoki go'daksan men uchun hamon,

Onamning yuragi o'zingsan singlim.

Dardimning darmoni jonajon singlim,

Otamning erkasi farishtam singlim.

Onamning ko'zlari senda aks etgan,

Akalarining uchun jannatsan singlim.

QARINDOSH.

Hayotning tashvishi kimda yo'q deysiz?

Jigarim musofir, qanday beray dosh

Oqibat ketmasin oqibat deysiz

Yig'ilib turaylik qarindosh

Soatlar o'tadi kunlarni ulab

Kunlar ham o'tadi hafta, oy bo'lib



O'tib ketsa yillar kimda qanday naf

Yig'ilib turaylik qarindosh

Akamsiz, opamsiz, jigarlarimsiz

Ukam ham singlim-u,
dilbandlarimsiz

Barchamiz bir avlod farzandlarimiz

Yig'ilib turaylik qarindosh

To'y desa yugurib xizmat qilamiz

Maraka kunlarda bo'lib maslakdosh

Hop mayli kundamas oyda bo'lsa
ham

Yig'ilib turaylik qarindosh

To'y bo'lsa boramiz deya kutmaylik

Hoziroq jigarni yo'qlab boralik

Kech bo'lsa azobman qonlar
yutmaylik

Yig'ilib turaylik qarindosh

Hop mayli hammaga omad bo'lsin
yor

Lek mahshar kunlarga qolmasin
diydor

Yosh-qari yig'ilib hech bo'lsa bir bor

Yig'ilib qo'yaylik qarindosh

Diydor shirin, g'amdan etadi holis

Shu diydor uchun ham bo'laylik
yo'ldosh

So'zlarim achchig'-u niyatim xolis

Diydorga to'yaylik qarindosh

2-bob: BESHAVQAT, YOLG'ONCHI DUNYO.

QUTQARING.

Suv ham bosmas chanqog'im

Qumsayapman mehringiz.

Cho'llashgan bu ko'nglimga

Obi hayot bo'lingiz.

Holim xarobdir xarob

Adog'i yo'q yo'ldaman.

Ko'nglimni g'urbat bosgan

Qumga to'la ko'ldaman.

Har soniya botqoqqa

Ilojsizman, botyapman.

Javobi yo'q savolim

Bilmam kimni kutyapman!

Yig'lay desam ko'zimdan

Qurg'ur yosh ham oqmaydi.



Ko'nglim yoritish uchun
Hech zot sham ham yoqmaydi.

Gar ko'zimdan oqsa yosh
Artib qo'yar dastro'mol.
Ammo yoshim ko'zdamas
Qalbimdadir ehtimol.

Dardim ochiq aytolmay
Qog'oz qalam tutyapman.
She'rga solib dardimni
Shoirlik ham qilyapman.

ASLIDA ULAR BAXTLI.

Ko'zi ojizlar ham baxtli aslida,
Dunyoning gunohin ko'rmaydi ular.
Faqat yashaydilar qalbi qasrida,
Qo'rqita olmaydi hattoki tunlar.

Qalb ko'zi ularni qilar himoya,
Yomon yo'lga qadam qo'ymaydi
ular.

Dunyosi qorong'u yo'q biror soya,
Qastma-qast yurmaydi hech qachon
ular.

Hech shukur qilmaymiz lek baxtli
ular,

Biz uchun kerakdur go'yo suv, havo.
Nomahram insonga boqmaydi ular,
Allohning mehridan bo'lmas
mosuvo.

JURABEK XOTIRASIGA.

Parcha parcha bo'ldi bir parcha
qalbim,

Mayli maydalansin yurak-bag'rima.

Nega? Nega bo'lding hayotga
taslim?

So'ngi bor xayr demay ketgan
do'stima!!!

Sen qancha dillarni yig'latib ketding,
Ortingdan bo'zladi qancha qaro ko'z.
Nahotki sen so'ngi manzilga
yetding?!

Qon yig'lab qoldimku, topolmay bir
so'z.

So'ng bor diydoringni etolmadim his,
Tunlari tushimga kirgin har kecha.

Yurakda so'zlarim bosmasidan is,
Men uchun iltimos qaytgin bir kecha.



(She'r 2026-yil mart oyida 22 yoshida vafot etgan JURABEK xotirasiga bag'ishlanadi. Eng yaqin insonlarimdan biri. 2023-yil Toshkentga o'qishga kelganimda kvartira sabab bo'lib u bilan tanishgan edim, eng yaqin do'stlarim safiga kirgan edi. Bir kvartirada turganlar (7 kishi edik va o'zimizni BJA (Birlashgan Jamiyatlar Amirli) deb nomlagan edik) hech qachon uni unutmamiz. Hozir 6 ta qoldik, bu biz uchun og'ir.)

BIR QADAM.

Beshikdan to qabrgacha masofamiz
bir qadam,

Oxiratni unutib yashaymiz bizlar har
dam.

Nega xursand bo'lamiz, dillarga
berib ozor?

Anglamaymiz hech qachon hayot
emasku bozor.

SINDIRILGAN YURAK.

Yuragim sindirdi yuraksiz zo'rlar

Ko'zlarim ko'r qildi qalb ko'zi
ko'rlar.

Yolg'onlar ichra men qoldim adashib,

Dardimni bilsaydi qalbi bezorlar.

Sevgi deb atalmish tuyg'ular soxta,

To'xtagin ey hayot, birpasga to'xta.

Unutay barini kechay hayotdan,

Xohlasang umringa qo'yurman
nuqta.

Go'yoki yurarding kulib yonimda,

Sevgingni so'zlarding baxtli onimda.

Mehringni hech kimga ko'rmading
ravo,

Madorim qolmadi xasta jonimda.

Qaytsaydi ortiga, o'tmishga bu vaqt,

Sevgidan kechishga qilardim bir ahd.

O'zimchun yashardim sevib pinhona,

Yolg'izlik tongidan topardim men
baxt.

3-bob: INSON NIQOBI.

MATRYOSHKA.

Yolg'onlar ketidan tug'ilar yolg'on,

Kimlardur aldanar manfaat uchun.

Niqoblar ustidan taqilgan niqob,

Manqurtlik insofga ko'rsatib kuchin.



Har niqob ochilsa oshar g'azabi,
Ichidan yangisi tug'ilgan sayin.
Ketma-ket kichrayib borgani kabi,
Iymon ham yo'qolib ketmog'i tayin.

ASLO BO'LMAS ODAMIY.

Deydilar to'ysa eshak tepar bir kun
egasin,
Itning og'zi bo'lsa yog' qopar u ham
egasin.
Xarom hayvon ikkisi o'ylamaydi
ertasin,
Xarob qilar qachondir bir kun kelib
egasin.

Do'st bo'lsa ham ko'ppaklar
bo'lolmaydi fidoiy,
Ishi halol bo'lsa ham buzuq eshab
avzoyi.
Shu uchun ham aytgandir Mir
Alisher Navoiy,
It bo'lur, eshak bo'lur aslo bo'lmas
odamiy.

4-bob: IZHORI ISHQ.

HAMMADAN QIZG'ONDIM.

Hayot girdobidan qutqarding meni

Sen hayot yo'limda quvonchim
bo'lgin

Hattoki o'zimdan qizg'ondim seni
Qizg'ondim shu sabab sen doim
kulgin

Ko'ksingda yurakdek asragin meni
Gar hayot ekanman yonimda bo'lgin
Dunyoning zariga almashman seni
Qalbinga quyoshdek nur sochib
turgin

SO'NGI

NAFASGACHA SEVOLASANMI?

Kerakmas menga hech sendan
o'zgasi,
Tun-u kun yonimda bo'lolasanmi?
Nogoh gar qo'limdan tutsa o'zgasi,
Vafodor yor bo'lib turolasanmi?

Mahkam quchib meni bosib
bag'ringga,

Hech kimga bermayman
deyolasanmi?

Nogoh topsam o'lim, kelib qabrimga,
Haqqingga duolar qilolasanmi?



ILK BO'SA.

Labimni siladi lablarning na'mi,
Muhabbat uyg'otdi yuragimda ul.
Nahotki bu edi bo'saning tami,
Buni hadya etdi qizil atirgul.

QAYTSAYDING.

Yomg'ir bilan birga qaytsaydi u ham,
Sevaman deb bot-bot aytsaydi u ham.
Ko'zlarim intizor yig'laydi yurak,
Men kutganim kabi kutsaydi u ham.

YULDUZ QISSASI.

Yarim tunda yolg'iz kezarman
ko'cha,
Boqib turar menga ko'kdan zilol oy.
Topmadim yulduzni izladim necha,
Balki uyalgandur mendan hoynahoy.

Berkinib barchasi bulut ortiga,
Degandir mahliyo bo'lmangiz bizga.
Yerdagi yulduzlar go'zaldir bizdan,
Shulardan bittasi atalgan sizga.

Ne qadar ko'nglimni qurshadi armon,
Ko'kda yulduzlar ham oldi o'zini.

Yerdagi yulduzni topmadim hamon,
Ko'rmadim hattoki guldek yuzini.

Taqdirga tan berib qaytarman ortga,
Yuribman yo'limdan uchramas hech
kim.

Nahotki yo'liqdim tuzalmas dardga?
Nahotki shu qadar qalbim
chilparchin?!

5-bob: TO'RTLILIKLAR

Qayta berilganda menga bu hayot,
Bu holga tushmasdim, qilmasdim
xato.

Qalbim tubida qars etardim bunyod,
Yo inson bo'lardim, yokida gado.

Bir boshga bir o'lim deydilar azal,
Bir kunda ming bora o'lmoqdaman
men.

Ming o'lgandan ko'ra bir o'lgan
afzal,

Yorug' olamni tark etsammikin men.

Sham bilan yoritib bo'lmas dunyoni,
Shu uchun bir shamga qolmang
ishonib.



Yonib turgan sham ham o'char bir
kuni,
Butkul tugar hatto o'zidan tonib.

Sham bilan dunyoni bo'lar yoritib,
Ammo minglab shamlar bo'lish
kerak jam.
Yuraklar tubida yonmasa gar nur,
Zulmatni yengolmas hech qachon
odam.

Ey do'stim ertaroq ochaylik ko'zni,
Umr emas abadiy, emasdur boqiy.
Anglasak o'zlikni, anglasak o'zni,
Besh kunlik hayotni etgaymiz soqiy.

O'tib ketgusidur bu mash'um davr
Keling do'stim ozroq qilaylik sabr
Uchmaylik hech ham boylik,
mansabga
Kutib turgusidur bizlarni qabr

Yarim tunda uyqu ketganda qochib,

Barcha sirlaringni sen menga ochib.
Yig'lagin hattoki yostig'ing quchib,
Shu damda bir bora eslagin meni.

Insonlar hayoti menga bir tiyin.
Yashashsin hayotin tinchgina va jim.
O'zganing umrini qilmadim o'yin,
Men haqda gapirma, bas og'zingni
yum.

Kulishar ustimdan, qilar kinoya,
Go'yoki insonmas qoqilgan odam.
Sababsiz bo'xton-u so'zdan ne zoya,
Gapirmang! Gapingiz bermaydi
yordam.

Yigirmadan o'tsa ham yoshim,
Lek hech ishni qilmadim qoyil.
Mol-dunyo deb qotmagan boshim,
Bilmadim u nelarga moyil?!

*Barcha she'rlar muallifi: Al-
Qumqo'rg'oniy (Muxtor Soatov)*